

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ МАСАЛАСИ ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Norova D. R.

«Etnofolklor laboratoriya» bo'limi mustaqil tadqiqotchisi
Madaniyatshunoslik va nomoddiy meros ilmiy-tadqiqot instituti
dildoranorova1982@gmail.com

BUXOROLIKLARNING BOSH KIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO'ZLIK SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada erkak va ayollar bosh kiyimlari, ularning turlari va zardo'zlik san'atining bosh kiyimlarda aks etishi tadqiq qilinadi. Bu jarayon asosan musulmon bosh kiyimlari va ularning mahalliy aholi tomonida asrlar davomida qanday iste'foda qilinishi bilan izohlab beriladi.

Kalit so'zlar: Zardo'zlik, Buxoro amirligi, do'ppi, salla, belbog', muzey.

KIRISH

Insoniyat tarixida yaratgan ilk libos turlaridan biri bu bosh kiyimlar hisoblanadi. Ular o'zining dastlabki turli xavf xatardan himoya qilish va diniy xususiyatini bugungi kungacha saqlab kelmoqda. Xususan, O'rta Osiyo xalqlari kiygan bosh kiyimlarining ilk namunalari Persopolisdagi Doro I ning turli xalqlar tasviri tushirilgan o'yma naqshlarida saqlangan. Ilk o'rta asrlarda esa Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent devoriy suratlarida nisbatan bosh kiyimlar kam uchraydi. Islom dinining Movarounnahrda tarqalishi bilan hozirgi ko'rinishdagi bosh kiyimlar (salla, toqi, do'ppi, shabpo'sh, araqchin, kuloh...) urfga kira boshlaydi[9].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Tadqiqotda tarixiylik tamoyili, tasniflash, qiyosiy tahlil kabi usullardan keng foydalanilgan holda asosiy maqsad ochib berildi.

Tadqiq etilayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni bir qator asarlarda o'rganilganligini ko'rish mumkin. Davriy jihatdan adabiyotlarni uch qismga:

Rus-sovet davri tadqiqotlari;

Xorijiy tadqiqotlar;

O'zbek olimlarining tadqiqotlariga ajratish mumkin.

Jumladan, rus-sovet olimlaridan. M.A. Dudin, O.A. Suxareva, F.D. Lushkevich, xorijiy olimlardan Noha Gamil¹, Carol Bier,² o'zbek olimlaridan esa, R. Mukminova N. Sodiqova, Q. Jumayev, Z. Rahimova, N. Hasanova va boshqa bir qator olimlarni sanab o'tish mumkin. Ularnin ishlaridagi asosiy farq turli kolleksiya va turli davrlarni tadqiq qilishlaridadir[7,8]. Masalan, R. Mukminova va Z.Rahimovalar tarixiy miniatyuralar orqali qadimiy bosh kiyimlarni o'rgangan

¹Gamil Noha. The traditional style of women's clothing in Uzbekistan during the 13th-14th ah 19th-20th centuries // Journal of the General Union of Arab Archaeologists Journal of the General Union of Arab Archaeologists. Egypt. 2022. Volume 7. – P.183.

²Carol Bier. Bukhara: Traditional Weavings from Pre-Soviet Central Asia Bukhara: Traditional Weavings from Pre-Soviet Central Asia // Textiles Studies. Lincoln.1992. – P.56.

bo'lsa, Q.Jumayev va N.Sodiqovalar turli muzey kolleksiyalari bo'yicha tadqiqot olib borishgan[1].

Bosh kiyimlar nafaqat amaliy vazifani balki bezak, ijtimoiy mavqeni ham bildirib turgan. Hatto ularning bog'lanish uslubi ham kishining jamiyatdagi o'rnini ko'rsatgan. Salla musulmon erkaklarining bosh kiyimi (forscha - tugun degan ma'noni bildiradi) (3-rasm). Mato (asosan dokadan tayyorlanadi), eni 0,5 metr, uzunligi 1,5-3 metrdan 7 metrgacha o'lchamda bo'ladi. Sallani do'ppi, kuloh (2-rasm), telpak ustidan, ayrim joylarda (Hindiston, Pokiston va boshqa joylarda) bosh kiyimsiz yalang boshlarga o'rashadi. Shoh, vazir, amaldorlarning unvoni va lavozimiga qarab sellasiga qimmatbaho toshlar taqilgan. Sallaning o'ramlari soni va o'ralish usuli, matosi, dini, mazhablarini hamda kishilarning ijtimoiy mansubligini bildirgan. Musulmonlar boshlariga o'raydigan sallalarning turlicha ko'rinishlari bo'lgan. Masalan, imoma – bu oq ko'p qatlamli asosan imomlar kiyadigan salla turi bo'lgan. Dastor – turli ranglarda va turli bezaklar(kashta, zardo'zi)dan iborat bo'lgan. Asosan saroy amaldorlari bazmlarda kiyishgan. To'q rangdagi baxmalga zar iplar bilan tikilgan erkaklar do'ppisi zardo'zining guldo'zi uslubida tikilgan va “davlati sar” deb qadrlangan. O'rta asr miniaturalarida bu misollarni yaqqol ko'rish mumkin(6-rasm).

Buxoro vohasi aholisining bosh kiyimlari rangba-rang bo'lib, turli davrlarda tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Xususan, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro amirligiga tashrif buyurgan xorijliklar vohaga xos bosh kiyimlarni yig'ishni boshlashgan va dunyo muzeylari fondlariga topshirishgan[2,3].

Bosh kiyimlardan Buxoro vohasida va unga yaqin tutash tumanlarda erkaklar ichi kovak, konus shaklidagi mo'ynali telpak kiyishni rasm qilganlar. Uning yuqori qismi matodan yoki qorako'l teridan ishlanib, tevaragi mo'yna qilingan(bu uslubdagi bosh kiyimlar kiyish Buxoro yahudiylarida ham odat bo'lgan). Bu birgina misol bo'lib, tadqiqotni kolleksiyalash, klassifikatsiyalash, tasniflash va analiz metodlari orqali keng o'rganish imkoniyati mavjuddir. Shuningdek, etnografik dala tadqiqot metodi ilmiylikni va haqqoniylikni yanada oshiradi.

O'tmishda yetti yoshdan yetmish yoshgacha salla o'ralgan bo'lib, sallalar ip gazlama, ip aralash jun matolar, doka, ba'zan qimmatbaho matodan tayyorlangan(3-rasm). Sallalar uchun Buxoroda hind va kashmir shodokasi oliy sifatli mato hisoblangan. Aholining har bir ijtimoiy tabaqasi sallani o'ziga xos o'rashi bilan ajralib turgan. Kishilar ish bilan mashg'ul bo'lgan yoki uyda bo'lgan paytlarida sallani yechib qo'yib, boshlariga ro'ypokcha (belbog') yoki bir parcha matoni bog'lab olishgan.

Salla qilingan matolar kishilar yoshiga qarab rangi har-xil bo'lgan. Masalan: keksa yoshdagi kishilar odatda oppoq, o'rta yoshdagilar kulrang, ulamolar havorang, yoshlar esa rangdor salla o'raganlar. Qish faslida paxmoq, qalin matodan salla o'rash rasm bo'lgan.

Salla birinchi marta o'g'il bolalar boshiga sunnat to'yida tantanali suratda o'rab qo'yilgan, keyin esa bunday marosim nikoh to'yida takrorlangan, yani uylanayotgan yigit boshiga “kuyov salla” o'ralgan, bu marosimni Buxoroda “joma po'shon” yani to'n kiydirish marosimi deb atalgan.

Sallaning matosi odatda 6 metrdan kam bo‘lmagan va u 24 metrgacha bo‘lgan. Sallaning uchi chap yelkaga tushib turgan va u “dastorpech” deyilgan. Uning uchi salla ustiga qistirib qo‘yilib, faqat namoz o‘qilayotgan paytdagina tushirilgan. Salla 3 xil vazifani bajargan: issiq kunda soyabon bo‘lgan, joynamoz va dasturxon bo‘lgan, musofir noxos vafot qilsa kafan ham qilib ishlatilgan.

Islom tarixi va aqidalariga borib taqaladigan odatga ko‘ra, katta yoshdagi mo‘min-musulmonlar odatda bosh yalang yurmaganlar. Bolalar esa do‘ppi kiyib yurishgan.

Yilning issiq fasllarida ham erkaklar uyda, ko‘cha-kuyda, mehmondorchilik va ishxonalarda do‘ppi, qalpoq, kallapo‘sh degan har joyda turlicha ataladigan bosh kiyimlarni kiyishgan.

Do‘ppilar qattiq va yumshoq matolardan tikilib har xil bezaklar berilgan. Doira, to‘rtburchak do‘ppilarning gullari, bezaklari ham har xil bo‘lib, Buxoroda guldo‘zi, zamindo‘zi uslubida tikilgan zardo‘zi do‘ppilarga talab katta bo‘lgan (5-rasm). Ayollar do‘ppisida, gullar, naqshlar, mevali daraxtlar, qushlar tasvirlab tikilgan. Gullardan chinnigul, lolagul, gultojixo‘roz, olma guli, anor guli bezaklari, mevalardan anor, gilos, qalampir, olma, bodom shaklidagi bezaklardan, qushlardan: bulbul, tovus, tustovuqning tasvirlari tushirilgan gullarni zar iplar bilan tikib, bezak berib hunarmandlar san’at darajasiga yetkazganlar [10].

Buxoro hududida do‘ppidan tashqari peshonaband va kultapo‘shak ayollarning asosiy bosh kiyimlaridan biri hisoblangan (1-rasm). Ananaviy bosh kiyim juda xilma-xil uslubda, naqshda, to‘rtburchak shaklidagi “peshonaband” hisoblangan (4-rasm). Buxoroda katta qiyiq ro‘molni “rido” deb ataydilar. Keyinchalik Rossiya fabrikalarida ishlab chiqarilgan va ular juda mashhur bo‘lgan. Gullar tikib bezalgan ipak ro‘molni “farang” ro‘mol, burchaklariga guldasta solingan ro‘molni “chorgul” ro‘mol, o‘rtasiga bezak solingan ro‘molni “dastagul” ro‘mol, yupqa ipak ro‘molni “harir” va “qalg‘ay” (asosan Buxoro yahudiylari tayyorlashgan) deb atashgan [4]. Badavlat xonadon ayollari marosimlarda oltin yoki kumush iplar bilan naqsh solingan “zardo‘zi” uslubida tikilgan ro‘mol o‘rashgan. Bularni Rossiyadan va Hindistonning Kashmir viloyatidan savdogarlar Buyuk ipak yo‘li orqali olib kelishgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ingiliz va fransuz matolari ham Buxoro bozorlariga kirib kelgan.

Qadim zamonlarda ayollar bosh kiyimlaridan yana biri salla bo‘lgan. Juvonning birinchi farzandi tug‘ilgach “beshik to‘yi” marosimida “sallabandon” yani salla o‘rash marosimi o‘tkazilgan. Unda kelinchakning onasi qiziga salla bog‘latadi. Ushbu marosimda yosh kelin katta xotinlar qatoriga o‘tib, ayolning ko‘krak qismini yopib turuvchi “lachak” ham bog‘lanadi. Boshiga kultapo‘shak kiydirib (1-rasm), peshonasidan peshonaband (4-rasm) o‘raladi va ustidan katta ro‘mol tashlanadi. Yosh qizlar asosan do‘ppi kiyishgan, kelinchaklar zar do‘ppi kiyganlar, peshonaband o‘rashgan. Turmushga chiqqan qiz farzand ko‘rgach, yoshi ulug‘ bo‘lgunga qadar “kultapo‘shak” kiygan. Ushbu bosh kiyimlar to‘plami sharq ayollarining o‘ziga xos nafosati belgisi ham edi. Kultapo‘shaklarning orqa qismi maxsus xaltacha ko‘rinishida bo‘lib, sochlarni solib qo‘yish uchun mo‘ljallangan. Turmushga chiqqandan so‘ng ayollar uy-ro‘zg‘or yumushlari bilan shug‘ullanganida, bola parvarishida sochlar xalaqit qilmasligi uchun bunday bosh

kiyimdan foydalanishgan. Xonlar saroyi yoxud boy-badavlat xonadonlarning ayollari zar iplar bilan gul solingan kultapo'shaklar kiyishgan. Keyinchalik gul solingan zardo'zi do'ppilar kiyish rasm bo'lgan(5-rasm).

Har bir naqsh, bezak bilan bog'liq rivoyatlar xalq orasida keng tarqalgan. Masalan erkaklar do'ppisining ustki qismidagi 4 ta qalampir bezagi(guli) erkak kishining sog'ligi, boshining omonligi 4 tomondan himoyada ekanligini bildirsa, gardishdagi (aylanasi) 16 ta bezak arka, ravvoq (gul)lar erkak kishi serfarzand bo'lishi, oilasi katta bo'lishi, uvali-juvali bo'lishini bildirgan(6-rasm). Buxoro vohasida hozirgi kunda ham o'g'il bolalarning sunnat to'yi, muchal to'ylari uchun bunday uslubdagi zardo'zi do'ppilar tikiladi[11].

O'zbek milliy libosini bosh kiyimsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday bosh kiyimlardan biri do'ppi bo'lib, uning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bunday bosh kiyimlarning tasvirlarini arxeologlar tomonidan topilgan moddiy va yozma manbalarda, devoriy suratlarda, miniaturalarda, tangalarda ko'rishimiz mumkin[5,6]. Do'ppi-turkiy so'zdan olingan bo'lib, "tepalik" ."cho'qqi" degan ma'nolarni anglatadi. Har bir mintaq, hududning do'ppilari tikilishi, shakli, rangi, bezak va naqshlari bilan ajralib turadi. Do'ppi orqali uning egasining qaysi viloyatdan ekanligini aniqlash mumkin.

Do'ppi 3 qismdan: Tapa (aylana yoki to'rtburchak shaklida), kizak (gardish shaklida) va jiyakdan tuzilgan. Do'ppi tikuvchi ustalar maxsus uni qolipga solib astari bilan birlashtirib berganlar (shinonchi).

Zardo'zi do'ppilar asosan baxmal, shoyi, satin, bo'z matolarga tikilgan. Guldo'zilar shoyi, baxmalga, zamindo'zi uslubida esa paxta, yarim ipak va bo'z gazlamalardan asos qilib ustiga tikishgan. Do'ppiga oid qadriyat:

Qadimda do'ppini oyoq osti qilish, oyoq ostiga olish, uni bosish, ustidan hatlab o'tish, qo'lga olib o'ynab, aylantirib osmonga otish do'ppi egasiga behurmatlik, beodoblik sanalgan. Bosh kiyimning yo'qotilishi, esdan chiqarib biror joyda qoldirilishi ham noxush holat bo'lgan.

Do'ppi bilan bog'liq turli xalq maqolu iboralari xam bugungacha saqlangan. Masalan, boshga kiyim kiygizish vaqtida "boshing omon bo'lsin", "yigitga do'ppi yuk emas" yoki do'ppi bosh bilan shu darajada ajralmas buyum bo'lganki, "bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi", "biror kishi bilan gaplashmay o'z do'pping bilan maslahat qil" kabi iboralar xalq orasida do'ppiga berilgan ahamiyatni yaqqol ko'rsatadi.

Shuningdek, aylana va to'rtburchak shakldagi do'ppilarning o'ziga xos falsafiy ma'nosi ham bo'lib, aylana do'ppilar osmon, koinotga ishora bo'lsa, to'rtburchak do'ppilar kishilar hayotining to'rt bosqichi (bolalik, o'smirlik, yoshlik va keksalik)ga ishora bo'lgan. Do'ppilar shakli kishining yoshiga qarab har-xil ko'rinishda bo'lgan. Do'ppilar uchi cho'qqi, konus shaklida, yarim qubba, tagi yassi dumaloq, to'rtburchak-chorsi shaklida tikilgan. Ular ipak, zar iplar, kumush iplar, piltali joylama shaklida kashta naqshlari va metal qubbalar bilan bezatilgan.

Aksariyat do'ppilar qora satin, qora baxmal, shoyi va sidirg'a adrasdan tayyorlangan. Salla o'rash uchun tayyorlangan "kulohlar" shakli cho'qqisimon bo'lib, asosan ular zar va kumush iplarda kashta qilingan va ipak iplarda "iroqi"

uslubida kashta qilingan. Uning tevaragi enli to‘qima jiyak-ze bilan aylantirilgan bo‘lib ichiga paxta qavalgan, astari esa chit va adrasdan qilingan.

Yana bir bosh kiyimi araqchin qishda telpak ostidan kiyilgan, yozda uyquga yotishda ham kiyib yotilgan. Asosiy vazifasi: boshni issiq saqlagan, namlikni telpakka o‘tkazmagan va bemaolol yuvib kiyish mumkin bo‘lgan. U yupqa qilib astar bilan choklangan. Bosh kiyim insonni turli balolardan saqlaydi degan ma’noda turli oyatlar, Ollohga tavakkul, Hazrati Alining ismi yozilgan kulohlar ham sufiylar orasida muomalada bo‘lgan. Ularni maxsus marosimlarda kiyishgan. Yoki shogirdlar tomonidan irshod olganda, xatmi Qur’onda ustozlariga atab tayyorlattirilgan.

Shuningdek, darveshlar kiyib yuradigan “kuloh”larning ham turli namunalari bo‘lgan va turli tariqat vakillari kulohining shakliga qarab bir biridan farq qilgan. Masalan, naqshbandiya tariqatidagi darveshlar uzun uchli, cho‘qqi kuloh kiyib yurishgan(2-rasm).

XULOSA

Hozirgi kunda milliy bosh kiyimlarni maxsus tadbirlar, marosimlarda kiyishadi, lekin bir necha o‘n yillar oldin, o‘tgan asrlarda do‘ppi O‘rta Osiyo aholisining asosiy bosh kiyimi bo‘lib xizmat qilgan. Erkaklar, ayollar, bolalar, keksalar doimiy bosh kiyimda yurishgan. Jumladan, har bir hududning o‘ziga xos milliy do‘ppi turlari mavjud bo‘lib Buxoro do‘ppilari o‘zining betakrorligi bilan ajralib turgan. Kundalik hayot, bayram, maxsus marosim va to‘y-tantanalari uchun do‘ppilar tikilgan va ularning turlicha namunalari bo‘lgan.

Buxoro zardo‘zi do‘ppilari uchun maxsus silliq baxmallarning har xil ranglaridan tanlab olingan. XIX asrda zamindo‘zi uslubida tikilgan bo‘lsa, XX asr boshlaridan guldo‘zi uslubida tikish urfga kirgan. Zardo‘zi do‘ppi-kalapo‘shi zardo‘zining har bir qismi (tepa, gardish,) alohida tikilib, oxirida birlashtirilgan). Ustki gumbazsimon qismi do‘ppiga ko‘rk, chiroy, bezak bergan. Yosh qizlar, muchal yoshidagi qizlar uchun aylana do‘ppilarning o‘ng tomonida (maxsus ot yoliga o‘xshatib zar iplardan popuk) po‘pak tikilgan. Gardishiga jiyali (zey) zardo‘zi-guldo‘zi, zardo‘zi-zamindo‘zi, zardo‘zi-guldo‘zi-zamindo‘zi, zardo‘zi-likakdo‘zi, zardo‘zi-bereshimdo‘zi, zardo‘zi-pilakchado‘zi, zardo‘zi-shakarakdo‘zi uslublarida do‘ppilar tikilgan. Zardo‘zi do‘ppini tayyor holiga keltirish uchun teppa va gardish (aylana) qismlari birlashtirilgach, astari tikilib yelim (un bilan suv qo‘shilgan suyuq massa tayyorlangan) surtib oftobda quritish uchun maxsus qolipga biriktirib qo‘yilgan. Qurigandan keyin chiroyli bir xil shaklga kelgan. Astarga ipak, satin va adras matolardan foydalanishgan. Ayollar zardo‘zi do‘ppisining balandligi 5-8 sm.ni, diametri 13-19 sm. ni tashkil qilib, buyurtma asosida tikilgan do‘ppilar uchun buyurtmachining bosh o‘lchamlari (bosh aylanasi masalan: 50 sm.) olingan va shu o‘lcham asosida do‘ppi gardishi bichib tikilgan. Zardo‘zi-guldo‘zi uchun maxsus qora, qizil, siyoh rang baxmallar asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, zardo‘zi-zamindo‘zida shoyi, paxta yarim ipak matolardan foydalanilgan. Zardo‘zi-guldo‘zida kartondan qirqilgan naqsh gullar ustidan zar iplar bilan tikilsa, zardo‘zi-zamindo‘zida karton gullari kerak bo‘lmaydi, tikish texnikasi usta zardo‘z mahorati va tajribasi asosida amalga oshiriladi. Zardo‘zi

do‘ppilarni tikishda tillorang, kumushrang iplardan, sim ip va likak iplardan, yaltiroq tangachali pilakcha va munchoqlardan foydalanishgan.

Bosh kiyimlar insonlarning jamiyatdagi milliy, diniy, ijtimoiy mavqeyini ko‘rsatib turgan va amaliy bezak san’atining bejirim namunalari sifatida bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi. KP-1. Inv. 9217/9; Inv. 634/9; KP-41. Inv. 26316/9.
2. O‘zbekiston madaniy merosi. Moskva muzeylari to‘plamida. X. 2020. B.–221, 283.
3. O‘zbekiston madaniy merosi. Chexiya Respublikasi to‘plami. XVI. T.: 2020. B. –155.
4. Емельяненко Т.Г. Традиционный костюм бухарских евреев (этнокультурный аспект) (https://ethnomuseum.ru/collections/e_library/978-5-85803-448-3/). – СПб.; Петербургское востоковедение, 2012. – 264 с.
5. Рахимова З. “К истории костюма народов Узбекистана: костюм Бухары и Самарканда XVI-XVII веков (по данным средневековой миниатюрной живописи)” // Санъат.2005.
6. Содикова Н. Национальная одежда узбеков в XIX-XX веках. Бухары и Самарканд, 2006. 32 с.
7. GamilNoha. The traditional style of women's clothing in Uzbekistan during the 13th-14th ah / 19th-20th centuries // Journal of the General Union of Arab Archaeologists Journal of the General Union of Arab Archaeologists. Egypt. 2022. Volume 7. – P.183.
8. Carol Bier. Bukhara: Traditional Weavings from Pre-Soviet Central Asia Bukhara: Traditional Weavings from Pre-Soviet Central Asia // Textiles Studies. Lincoln.1992. – P.56.
9. Сухарева О.А. Костюм народов Средней Азии: Историко-этнографические очерки / -М.: Наука, 1979.— 240 с.
10. П. А. Гончарова «Золотошвейное искусство Бухары». Ташкент, 1986.
11. А. И. Сидоренко и др. «Золотошвейное шитьё Бухары» Ташкент, 1981.

Норова Д. Р.

Независимый исследователь отдела «Этнофальклорная лаборатория»
Научно-исследовательский институт культурологии и нематериального наследия
dildoranorova1982@gmail.com

ГОЛОВНЫЕ УБОРЫ БУХАРЦЕВ И ОСОБЕННОСТИ ИСКУССТВА

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются мужские и женские головные уборы, их основные типы и особенности, а также отражение традиций золотого шитья в их художественном оформлении. Особый акцент сделан на мусульманских головных уборах, их длительном бытовании среди местного населения и значении в системе культурных и религиозных традиций.

Ключевые слова: Золотошвейня, Бухарский эмират, тюбетейка, чалма, пояс, музей.

Norova D. R.

Independent researcher at the department of «Ethno-Folklore Laboratory»
Research Institute of cultural studies and intangible cultural heritage
dildoranorova1982@gmail.com

HEADRESSES OF THE BUKHARIANS AND THE FEATURES OF THE ART OF GOLDEN EMBROIDERY ON THEM

ABSTRACT


The article explores the types of men's and women's headdresses and highlights how the art of gold embroidery is reflected in their design. Particular attention is given to Muslim headwear, its long-standing use among local communities, and its significance within cultural and religious traditions.

Keywords: Gold embroidery, Bukhara Emirate, skullcap, turban, belt, museum.

ILOVA



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm



5-rasm



6-rasm